

QADIMGI HIND TILSHUNOSLIGI: ILMIY AN'ANALARI VA AHAMIYATI**Andijon davlat chet tillari instituti***Ingliz filologiyasi o'qitish metodikasi**va tarjimashunoslik fakulteti**Filologiya va tillarni o'qitish xitoy**tili yo'nalishi 102-guruh talabasi***Abdujabborova Bahriniso Farxodbek qizi***Ilmiy maslahatchi: Zaynobiddinova I.M*

Annotatsiya: Ushbu tezis maqolada qadimgi hind tilshunosligining shakllanish jarayoni, Sanskrit tili grammatikasi, Paninining ilmiy tizimi, Vedalar fonetikasi va hind tilshunosligining jahon ilmiga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Sanskrit, Panini, qadimgi hind tili, Veda an'analari.

Annotation: This thesis article analyzes the development of ancient Indian linguistics, focusing on Sanskrit grammar, Panini's linguistic system, Vedic phonetics, and the impact of ancient Indian scholarship on the global study of language.

Keywords: Sanskrit, Panini, ancient Indian linguistics, Vedic tradition.

Аннотация: В статье рассматривается развитие древнеиндийского языкознания, грамматика санскрита, система Панини, ведическая фонетика и влияние индийской лингвистической традиции на мировую филологию.

Ключевые слова: санскрит, Панини, древнеиндийское языкознание, ведическая традиция.

Qadimgi hind tilshunosligi jahon filologiyasi tarixida o'ziga xos o'rin tutadi. Bu maktabning eng muhim xususiyati shundan iboratki, hind olimlari tilni faqat kundalik nutq vositasi sifatida emas, balki qat'iy qonuniyatlarga ega bo'lgan ilmiy tizim sifatida o'rganganlar. Sanskrit tili esa tilshunoslik tarixida o'zining nihoyatda murakkab, mukammal va aniq tuzilgan grammatik tizimi bilan ajralib turadi. Qadimgi Hindistonning diniy-falsafiy an'analari, xususan Vedalar, tildagi har bir tovushning aniq talaffuz qilinishini talab qilgan. Shu sababli tildagi fonetik birliklar juda erta davrlardayoq ilmiy asosda tahlil qilina boshlagan. Vedalarning og'zaki ravishda avloddan avlodga yetkazilishi har bir unli, undosh, urg'u va ohangni mukammal bilishni, talaffuzdagi eng kichik xatoni ham oldini olishni taqozo etgan. Bu jarayonda fonetika bo'yicha maxsus ilmiy yo'nalishlar shakllangan bo'lib, ular tovushlarning paydo bo'lish joyi, jaranglilik darajasi, burunlashish, cho'zilish kabi jarayonlarni o'rgangan. Tilshunoslikning shakllanishida Panini nomi alohida ahamiyatga ega. Uning eramizdan avvalgi V-IV asrlarda yozgan "Ashtadhyayi" asari dunyodagi eng mukammal grammatik tizimlardan biri hisoblanadi. Ushbu asar 4000 ga yaqin sutra

qisqa, ammo juda aniq formulalardan iborat. Paninining grammatikasi o'z zamonasi uchun nafaqat tilshunoslik, balki mantiq va matematik tizim darajasida tuzilgan bo'lib, boshqa olimlar asrlar davomida shu tizim asosida sharhlar yaratgan. Uning affiksalar tizimi, fe'l paradigmalari, so'z yasalihi haqidagi qarashlari hozirgi qiyosiy tilshunoslik va hatto kompyuter lingvistikasi uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa sandhi tovush o'zgarishlari haqidagi qonuniyatlar bugungi fonetika nazariyasiga juda yaqin. Sanskrit tili grammatikasining mukammalligi XIX asrda hind-yevropa tillari qiyosiy tahlilining boshlanishiga sabab bo'ldi. Yevropa olimlari Sanskritning fonetik va morfologik tuzilishini chuqur o'rganib, uni yunon, lotin, german va slavyan tillari bilan taqqoslaganlar. Natijada tillar tarixi, ularning kelib chiqishi, umumiy ildizi haqidagi nazariyalar ilmiy asosga ega bo'ldi.

Qadimgi hind tilshunosligi nafaqat Sharq, balki G'arb ilmiy maktablari rivojiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Tilni matematik tizim sifatida ko'rish, qoidalarni qisqa va umumiy shaklda ifodalash, fonetik qonuniyatlarni qat'iy tartibda tasniflash kabi yondashuvlar bugungi lingvistika nazariyasining shakllanishiga xizmat qilgan. Bundan tashqari, qadimgi hindlar so'z ma'nolarining sharhi, etimologiya, vaznshunoslik, talaffuz va grammatik morfemalarning vazifalarini o'rganishda juda erta ilmiy an'analarni yaratganlar. "Nirukta" deb nomlangan izohli lug'atlar tizimi, "Shiksha" - fonetika haqidagi ilm, "Chandas" - she'riy vazn nazariyasi va "Vyakarana" grammatik tizimning barchasi qadimgi hindlarning tilga bo'lgan chuqur e'tiborini ko'rsatadi. Bu yo'nalishlarning har biri tilning ma'nodoshligi, tovushlarning o'zgarishi, so'z yasalihi va matn tuzilishiga oid nazariy qarashlarni shakllantirgan. Xususan Sanskrit tili fonetikasida tovushlar bo'g'iz, tanglay, til, lab va burun orqali hosil bo'lishiga ko'ra aniq tasniflangan. Bu tasnif bugungi fonetika ilmiga juda yaqin bo'lib, zamonaviy artikulyatsion fonetikaning dastlabki shakli aynan Hindistonda yuzaga kelganini ko'rsatadi. Vedalarning og'zaki tilda o'qilishi, ya'ni mukammal talaffuzni talab qiluvchi an'ana tilshunoslikning chuqur rivojlanishiga sabab bo'lgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, qadimgi hind tilshunosligi jahon tilshunosligi tarixida eng mukammal nazariy tizimlardan birini yaratgan bo'lib, Paninining grammatik yondashuvlari, Vedalar fonetikasi va Sanskritning ilmiy tuzilishi zamonaviy lingvistika rivojida muhim o'rin egallaydi. Bu ilmiy meros hozirgi kunda ham qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, fonetika, morfologiya va formal grammatika kabi sohalar uchun bebaho manba bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Нурмонов А. Танланган асарлар. Тошкент: Академнашр, 2012.
2. Расулов Р. Умумий тилшунослик. Дарслик. Тошкент, 2013
3. arxiv.uz
4. O'rinboyev B., Musayev A. Umumiy tilshunoslik. Toshkent: Oltin kitob, 2022.